



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'TKAZILADIGAN SAYRDA PEDAGOGIK FAOLIYATLARINI LOYIHALASHTIRISH

Karimova Shoira Baxtiyarovna

Qo'qon Davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Abdug'aniyeva Odina Hasanboy qizi

Qo'qon Davlat universiteti talaba.

Annotatsiya: Ushbu maqolada MTTdagi bolalarning tabiat haqidagi tushunchalarini tarbiyalashda ish olib borayotgan ijodkor tarbiyachilar faoliyatlari,

milliy ekologik qadriyatlar mohiyatini bolalarga yetkazish, ularda tabiatga nisbatan chuqur hurmat qaror toptirish, bola ekologik bilimni shakllantirish yo'lida muhim vosita ekanligi, ekologik bilimni tarkibiy qismlarini ilmiy asoslash, ekologik munosabatlar, tabiatga qiziqsh, atrof muxit doirasida bola ekologik tasavvuri, idroki, tafakkuri, savodxonligi, faolligi hamda bilimdonligini shakllantirish maqsadga mufoviqdir.

Tayanch so'zlar: milliy ekologik qadriyatlar, bola ekologik bilimni shakllantirish, ekologik tasavvur, idrok, tafakkur, savodxonlik, bola faolligi, ta'limiy o'yinlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность творческих воспитателей, работающих над формированием у детей дошкольного возраста представлений о природе. Освещается значение донесения до детей сущности национальных экологических ценностей, формирования у них глубокого уважения к природе как важного средства развития экологических знаний. Обосновываются научные основы компонентов экологического образования, а также подчеркивается целесообразность формирования у детей экологических отношений, интереса к природе, экологических представлений в рамках окружающей среды, их восприятия, мышления, грамотности, активности и осведомленности.

Ключевые слова: национальные экологические ценности, формирование экологических знаний у ребёнка, экологическое представление, восприятие, мышление, грамотность, активность ребёнка, образовательные игры.

Annotation: This article examines the activities of creative educators working on the formation of preschool children's understanding of nature. It highlights the importance of conveying the essence of national ecological values to children and fostering in them a deep respect for nature as an essential means of developing ecological knowledge. The scientific foundations of the components of environmental education are substantiated, and the necessity of developing children's ecological attitudes, interest in nature, environmental awareness within the surrounding environment, as well as their perception, thinking, literacy, activity, and knowledgeability is emphasized.

Keywords: national ecological values, formation of a child’s environmental knowledge, environmental perception, cognition, thinking, literacy, child activity, educational games.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta yoshdagi bolalarda o’zbek xalqining milliy urf odatlaridan foydalanish, tabiat haqidagi bilimlarni tarbiyalash alog’ida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta yoshdagi bolalarda tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirishda maqsad va vazifalarning mazmuni, shakl va metodlari birligini ta’minlash va bola shaxsini kamol toptirish lozim.

- Maktabgacha yoshdagi bolalarida ekologik tushunchalarni shakllantirish mazmuni, ish shakllari va metodlarini belgilab beruvchi pedagogik prinsiplar, ya’ni: - tarbiyaning tabiat, atrof-muxit, mehnat bilan bog’liqligi; bolalarning psixologik xususiyatlarini xisobga olish, tarbiya jarayonining yaxlitligi, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va shu kabi ekologik bilim faoliyatining muntazamligi, davomiyligi va uzluksizligiga erishish lozim.

Faoliyat jarayonida bolalarda maktab, oila va jamoatchilikning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish va tabiat haqidagi bilimlarini tarbiyalash natijalarini keng targ’ib qilish kerak.

Bolalarning o’zaro muloqotlari qum maydonchalarida sodir bo’ladi. Yozgi mashg’ulotlarni qum maydonchalarida olib borilishi ko’proq ta’limiy-tarbiyaviy natija beradi. Qum bilan o’ynaladigan o’yinlar boshqa o’yinlarga nisbatan ma’lum bir maqsadga yo’naltirilgan va barqaror bo’ladi. Aynan shuning uchun qum bilan o’ynaladigan o’yinlardan korreksion rivojlantiruvchi va ta’limiy o’yinlar sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari yozgi mavsumda har-xil mavzularda tadbirlar, sport musobaqalari tashkil etiladi.

Kun tartibida tashkil etiladigan sport va sog’lomlashtirish tadbirlarining maqsadi - bolalarning vaqtini sarmazmun o’tkazish, ularning ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan hordiq chiqarishlarini ta’minlash orqali har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iboratdir. Chunki, ilk yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishida jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyati juda kattadir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda ta’limning sistemalilik va izchilligi prinsipiga asoslanish, har bir bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlash va o’tkazish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Bunday tadbir va musobaqalar bolalarning qaddi-qomatini to’g’ri shakllanishiga, yassi oyoq bo’lib o’sishini oldini olishga, asosiy harakat malakalarini rivojlanishi bo’yicha jismoniy ta’lim berish, o’yinlar orqali milliy odatlarni tarbiyalashga, harakat ko’nikmalari va jismoniy sifatlarini shakllantirish, gavdani to’g’ri tutish, shaxsiy va ijtimoiy gigiyenik malakalarini tarbiyalash, kundalik mashg’ulotda jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish va ularda ko’nikma hosil qilish kabi xislatlarni shakllantiradi. Bunday yozgi sog’lomlashtirish mashg’ulotlarini tashkil etish kelajagimiz egalarini aqlan yetuk, jismonan sog’lom bo’lib voyaga yetishlariga puxta zamin yaratadi.

Ish jurnalining sayr bolimi 5 qismdan iborat. Bu qismlarda tarbiyachi eng avvalo kuzatilayotgan obektni yoritishi, obektga mos bolgan mehnat turini, harakatli oyin, ixtiyoriy oyinlarni rejalashtiradi. Tarbiyachi bolalarni ixtiyoriy oyinga jalb qilgan vaqtda,

asosiy harakat turlarini mustahkamlashga muhtoj bolgan bolalar bilan ishlaydi va ularda sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irtitish, turli usullarda yurish va boshqa harakatlar boyicha olgan malakalarini mustahkamlaydi.

Ish jurnalidagi kunning ikkinchi bolimi bolalar bilan yakka ishlash, badiiy adabiyotlar, oyin va faoliyatlar qismlariga bolingan bolib, unda tarbiyachi bola bilan qaysi mavzuda yakka ishlashini, oqib beriladigan, sahnalashtiriladigan, hikoya qilib beriladigan, yod olinadigan asarlar nomini, syujetli-qoidali, talimiy, stol ustida oynaladigan, rivojlantiruvchi oyinlar, tugilgan kunlar, uchrashuvlar, qogirchoq teatrlari, togaraklar va boshqa talimiy-tarbiyaviy faoliyatlar rejalashtiriladi.

Ona yer qadr qimmat, vatanparvarlik va tabiatparvarlik tuyg’usi, ekologik qadriyatlarini o’rganish, buyuk allomalarning tabiat haqidagi fikrlari bilan tanishish, atrof muhit, odob-axloq masalalari keng o’rganilgan. MTTdagi bolalarning tabiat haqidagi tushunchalarini tarbiyalashda ish olib borayotgan ijodkor tarbiyachilar faoliyatlari o’rganish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Milliy ekologik qadriyatlar mohiyatini bolalarga yetkazish, ularda tabiatga nisbatan chuqur hurmat qaror toptirish, bola ekologik bilimni shakllantirish yo’lida muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

2. Bola ekologik bilimni tarkibiy qismlarini ilmiy asoslash: ekologik munosabatlar: tabiatga qiziqsh, atrof muxit doirasida bola ekologik tasavvuri, idroki, tafakkuri, savodxonligi, fapolligi hamda bilimdonligini shakllantirish maqsadga mufoviqdir.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoshdagi guruh bolalarida tabiat haqidagi tushunchalarni shakllantirish, odob, fikr doirasining kengayishi va odamlarga nisbatan mehrlilik bo’lish tarbiyalanadi. Ish jurnalidagi kunning ikkinchi bolimi bolalar bilan yakka ishlash, badiiy adabiyotlar, oyin va faoliyatlar qismlariga bolingan bolib, unda tarbiyachi bola bilan qaysi mavzuda yakka ishlashini, oqib beriladigan, sahnalashtiriladigan, hikoya qilib beriladigan, yod olinadigan asarlar nomini, syujetli-qoidali, talimiy, stol ustida oynaladigan, rivojlantiruvchi oyinlar, tugilgan kunlar, uchrashuvlar, qogirchoq teatrlari, togaraklar va boshqa talimiy-tarbiyaviy faoliyatlar rejalashtiriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish bilimlarni bolalarning imkoniyatlari xamda urab turgan tabiatning xussiyatlarini nazarda tutgan xolda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida o’tadigan mashgulotlarda guruxning barcha bolalarida dastur talablariga muvofik elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim protseslari va bolalarning qobiliyatlari ma’lum sistema xamda izchillikda o’stiriladi. Kundalik xayotda kuzatish, o’yin, mexnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi.

Ekskursiya mashgulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar usimlik va xayvonlar, ular yashaydigan muxitni kurish imkoniyatiga ega buladilar. Ekskursiya bolalarga tabiatda mavjud bulgan uz aro alokalar xakida dastlabki dunyokarash tasavvurlarini olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o’zgarishiga qiziqish o’sadi.

Adabiyotlar.

1 "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi . Yangi tahrir. 2022.02.04

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari 2018-yil